

<i>Tashkilot nomi:</i>	Adliya vazirligi
<i>Tarkibiy tuzilma nomi:</i>	Inson resurslari bilan ishlashga mas'ul bo'linmalar sohasi
<i>Tanlov bosqichi:</i>	Suhbat
<i>Yo'nalishi:</i>	Mutaxassislikka oid savol

1. Dastlabki sinov davrida xodimga nisbatan mehnat qonunchiligining amal qilishini tatbiq etish masalasini tahlil qiling.
2. Dastlabki sinov natijasini tahlil qiling.
3. Mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslari va mehnat shartlari tushunchasini tahlil qiling.
4. Ish beruvchining mehnat shartlarini xodimning roziligisiz o'zgartirish huquqini tahlil qiling.
5. Xodimni boshqa ishga o'tkazish va uning muddatini tahlil qiling.
6. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazishni tahlil qiling.
7. Mehnat shartnomasini o'zgartirishni rasmiylashtirishni tahlil qiling.
8. Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslarini ayting.
9. Xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishlash uchun ko'chishni rad etishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni tahlil qiling.
10. Tashkilotning mulkdori almashganda, tashkilot qayta tashkil etilganda, uning idoraviy taalluqliligi (bo'ysunuvi) o'zgarganda mehnat shartnomasi amal qilishining davom etishini tahlil qiling.
11. Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilishni tahlil qiling.
12. Muddatli mehnat shartnomasini uning muddati tugashi munosabati bilan bekor qilishni tahlil qiling.
13. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilishni tahlil qiling.
14. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishni tahlil qiling.
15. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishni kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib olishni tahlil qiling.
16. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish to'g'risida ogohlantirishni tahlil qiling.
17. Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra bekor qilishni tahlil qiling.
18. Mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirishni tahlil qiling.
19. Ishdan bo'shatish nafaqasi nima va qanday holatlarda amalga oshiriladi?
20. Ishdan bo'shatish nafaqasi miqdorini aytib bering.

21. Mehnat shartnomasini yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganlik yoxud saylashda, tanlovda ishtirok etishni rad etganlik munosabati bilan bekor qilishni tahlil qiling.

22. Yakka mehnat nizolarining taraflari va mazmuni deganda nimani tushunasiz?

23. Yakka mehnat nizolari tushunchasini yoritib bering.

24. Yakka mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organlar haqida ma'lumot bering.

25. Mehnat nizolari komissiyalarini tuzish tartibi haqida ma'lumot bering.

26. Mehnat nizolari komissiyasining vakolatini yoritib bering.

27. Yakka mehnat nizolarini komissiyada ko'rib chiqish tartibi haqida ma'lumot bering.

28. Mehnat nizolari komissiyasining qarori haqida ma'lumot bering.

29. Bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolari haqida ma'lumot bering.

30. Mehnat nizosini hal qilishni so'rab murojaat etish muddatlariga to'xtaling.

31. Mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqiga kimlar ega?

31. Jamoa shartnomasining mazmunini va tuzilishini kim belgilaydi va uning mazmunida nimalar ifodalanishi lozimligini tahlil qiling.

32. Jamoa shartnomasini haqiqiy emas deb tan olinishi uchun Mehnat kodeksida qanday shartlar belgilangan?

33. Jamoa shartnomasi qachon kuchga kiradi va qachongacha amalda bo'ladi?

34. Jamoa shartnomasi qanday hollarda o'zining amal qilishini saqlab qolashi masalasini muhokama qiling.

35. Fuqarolarning ishga joylashish huquqni amalga oshirish uchun davlat qanday kafolatlarni belgilaydi?

36. Xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlariga nimalar kiradi?

37. Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qanday asoslarga ko'ra va qanday tartibda bekor qilinganida uchinchi oy uchun ham avvalgi ish joyidan o'rtacha oylik ish haqini olish huquqiga ega bo'lishini muhokama qiling.

38. Mehnat shartnomasining tushunchasi, taraflari haqida batafsil ma'lumot bering.

39. Mehnat shartnomasining mazmunida qanday asosiy shartlar kiritilishi kerak?

40. Qanday hollarda xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin?

41. Ishga qabul qilish tartibi haqida nimalarni bilasiz?

42. Ishga qabul qilish bosqichlari hamda avval tanishtiriladigan hujjatlar haqida batafsil gapirib bering!

43. Ishga qabul qilish chog'ida qanday jarayonlar bo'lishi kerak va taqdim etiladigan hujjatlar haqida batafsil gapirib bering!

44. Ishga qabul qilishni rasmiylashtirish, mehnat shartnomasini tuzish, kuchga kirish, ish boshlash jarayonlarini tushuntirib bering!

45. Mehnat shartnomasi tuzilayotganda dastlabki sinov belgilashdan maqsad nima va dastlabki sinov muddati qanday?

46. Mehnat kodeksi qanday munosabatlarni tartibga soladi va ushbu munosabatlar mazmuni qanday?

47. Mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplarini sanab bering.

48. Majburiy mehnat deganda nimani tushunasiz va qanday mehnat majburiy mehnat deb hisoblanmaydi?

49. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik davlat xizmatchilariga nisbatan tatbiq etiladimi?

50. Mehnat to'g'risidagi qonunchilikka nimalar kiradi?

51. Agar tashkilotda kasaba uyushmasi qo'mitasi tuzilmagan bo'lsa, ular bilan kelishib hal qilinadigan masalalar bo'yicha ish beruvchi qanday harakat qilishi kerak?

52. Ish beruvchining yakka tartibdagi huquqiy hujjatlarini tushuntirib bering.

53. Jismoniy shaxslar qaysi hollarda ish beruvchilar bo'lishi mumkin?

54. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning yuzaga kelish asoslarini tushuntirib bering.

55. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik nima va ijtimoiy sheriklik qanday darajalarda amalga oshiriladi?

56. Mehnat jamoasi tushunchasi va mehnat jamoasi umumiy yig'ilishi (konferensiyasi)ning vakolatiga nimalar kiradi?

57. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish shakllarini sanab bering.

58. Xodimlarning vakillik organlari tarkibiga saylangan shaxslarga qanday kafolatlar berilgan?

59. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarga mehnat shartnomasining erkinligi deganda nima tushuniladi?

60. Xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi prinsipining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

61. Tungi vaqtdagi mehnat uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlang.

62. Xodimning yozma roziligidan qat'i nazar, ish haqidan ushlab qolish holatlarini sanab o'ting

63. Qaysi holatlarda xodimga ortiqcha to'langan ish haqi undan undirilishi mumkin va uning miqdori qancha bo'lishi kerak?

64. Ish beruvchining xodimga kafolatli to'lovlarni amalga oshirishning 5 holatlarini aniqlang

65. Ish beruvchi xodimning davlat va jamoat majburiyatlarini bajarish vaqtida uni ishdan ish joyini (lavozimini) va o'rtacha oylik ish haqini saqlagan holda qaysi hollarda ozod etishi shart?

66. Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirganda xodimlarga taqdim etiladigan dam olish kunlari haqida gapirib bering!

67. Xodimga uning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq xarajatlarni kompensatsiya qilishi shart bo'lgan kamida 5 holatni aytib bering.

68. Xizmat safariga yuborilgan taqdirda ish beruvchi xodimga qoplashi shart bo'lgan xarajatlarni sanab o'ting.

69. Xodim boshqa joydagi ishga ko'chib o'tayotganda kompensatsiya to'lovlarini aniqlang.

70. Ma'lumki, xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun ish beruvchining buyrug'i bilan xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga qaysi shaxslarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi?

71. Mehnat kodeksiga ko'ra intizomiy jazo choralari bilan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" Qonunda belgilangan intizomiy jazo choralarning farqli jihatlari qaysilar? sanab bering!

72. Xizmat tekshiruvini o'tkazish vaqtida xodimni ishdan chetlashtirish tartibini yoritib bering.

73. Intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibi haqida gapirib bering!

74. Intizomiy jazoni qo'llash muddatlari, jazoning amal qilish muddati, tugallanishi va muddatidan avval olib tashlash tartibini tushuntirib bering.

75. Xodimga ish haqi to'lashni va unga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni kechiktirganlik uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi mavjudmi?

76. Qaysi holatlarda xodimning zimmasiga to'liq moddiy javobgarlik yuklatiladi?

77. Majburiy tibbiy ko'rik haqida ma'lumot bering?

78. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari haqida ma'lumot bering.

79. Ish kuni (smena) davomida xodimga dam olish va ovqatlanish uchun qancha vaqt tanaffus berilishi kerak?

80. Ish kuni (smena) davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari xodimlarga qo'shimcha tanaffuslar beriladimi?

81. Xodimlarni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishga jalb etish qanday hollarda ularning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi?

82. Qaysi hollarda dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari xodimning rozilgisiz ishga jalb etishga yo‘l qo‘yiladi?
83. Xodimlar uchun ta‘tillarining qanday turlari nazarda tutilgan?
84. Qanysi toifadagi xodimlarga har yilgi asosiy uzaytirilgan ta‘til beriladi?
85. Xodimga bitta tashkilotda ko‘p yillik ish staji uchun qancha miqdorda har yilgi qo‘shimcha mehnat ta‘tili beriladi?
86. Har yilgi mehnat ta‘tillarining davomiyligi qanday hisoblab chiqariladi?
87. Har yilgi asosiy va qo‘shimcha mehnat ta‘tillari qanday jamlanadi?
88. Agar ish yili davomida xodimning har yilgi mehnat ta‘tilining davomiyligi o‘zgargan bo‘lsa, har yilgi mehnat ta‘tilining davomiyligi qanday hisoblab chiqariladi?
89. Ishning birinchi yili uchun har yilgi mehnat ta‘tili qaysi toifadagi xodimlarga ishlab berilgan vaqtiga mutanosib ravishda haq to‘langan holda to‘liq davomiylikda beriladi?
90. Har yilgi mehnat ta‘tili davomiyligini ishlab berilgan vaqtga mutanosib ravishda hisoblab chiqarish tartibi qanday?
91. Xodimlar qanday hollarda har yilgi mehnat ta‘tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko‘chirish huquqiga ega?
92. Har yilgi mehnat ta‘tilining bir qismini keyingi ish yiliga ko‘chirish tartibi qanday?
93. Xodimni har yilgi mehnat ta‘tilidan chaqirib olish tartibi qanday?
94. MKGa muvofiq xodimlar qanday ijtimoiy ta‘tillarni olish huquqidan foydalanadi?
95. Ish haqi saqlanmaydigan ta‘til tushunchasi va uni berish tartibi qanday?
96. Xodimning xohishiga ko‘ra ish haqi saqlanmaydigan ta‘til kimlar uchun ish beruvchi tomonidan majburiy tartibda beriladi?
97. Uch yoshga to‘lmagan bolaning ota onasidan faqat otasiga nisbatan qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanashi mumkinmi va bu holatlarda ish haqi qanaqa belgilanadi?
98. To‘liqsiz mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko‘ra berilsa ish beruvchi barcha shaxslarga nisbatan shu qoidani qo‘llashi mumkinmi?
99. Xodim tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishni tahlil qiling.
100. Mehnat shartnomasida, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilanganiga nisbatan xodimning holatini yomonlashtirmaydigan qo‘shimcha shartlar haqida aytib bering!